

**SPORT MAKTABLARI VA SOG‘LOMLASHTIRISH MUASSASALARI
MAKTABDAN TASHQARI TA’LIMNING ASOSIY YO‘NALISHLARI
SIFATIDA**

**Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti
o‘qituvchisi Xalilov Baxodir Shirinboyevich**

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabdan tashqari ta’limning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan sport maktablari va sog‘lomlashtirish muassasalarining Navoiy viloyatidagi rivojlanish jarayoni tarixiy faktlar asosida tahlil qilinadi. Maktab o‘quvchilarining jismoniy tarbiyasi, sportga jalb etilishi, sport maktablarining infratuzilmasi, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari haqida batafsil ma’lumotlar keltiriladi. Shuningdek, ayrim tumanlar misolida sport tizimining holati tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: maktabdan tashqari ta’lim, sport maktablari, sog‘lomlashtirish, jismoniy tarbiya, o‘quvchi-yoshlar, Navoiy viloyati, sport infratuzilmasi.

Аннотация. В данной статье рассматривается развитие спортивных школ и оздоровительных учреждений как одного из ключевых направлений внешкольного образования на примере Навоийской области. Анализируются исторические данные, состояние физического воспитания школьников, вовлечение молодежи в спорт, инфраструктура спортивных школ, существующие проблемы и пути их решения. Также приводится обзор ситуации в отдельных районах области.

Ключевые слова: внешкольное образование, спортивные школы, оздоровление, физическое воспитание, учащиеся, Навоийская область, спортивная инфраструктура.

Annotation. This article analyzes the development of sports schools and health-improvement institutions as one of the key areas of extracurricular education, using the Navoi region as a case study. It provides a historical overview, examines students’ physical training, their involvement in sports, infrastructure conditions, existing challenges, and possible solutions. The paper also evaluates the state of sports development in specific districts.

Keywords:extracurricular education, sports schools, health improvement, physical training, schoolchildren, Navoi region, sports infrastructure.

O‘quvchilarning jismonan sog‘lom va baquvvat shaxs sifatida kamol topishida maktabdan tashqari ta’lim asosida ular faoliyat olib boradigan sport maktablarining ahamiyati nihoyatda muhimdir. Sport maktablarida o‘quvchilar o‘zlarining sevimli sport turlari bilan maktab va darsdan keyin shug‘ullanishlari ularning, nafaqat jismoniy kamol topishida, balki kelajakda shu sohaga oid kasb egasi bo‘lishi hamda o‘z qobiliyatlarini milliy va xalqaro darajada namoyon etishiga yordam beradi.

Navoiy viloyatida Respublika mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlab bolalar va o‘smirlar sportni rivojlantirishga ahamiyat qaratila boshlandi. Jumladan, 1993- yilda viloyatda 16 ta bolalar va o‘smirlar sport maktablari faoliyat olib borib, ularda 12 855 nafar o‘quvchilar sportning 12 turi bo‘yicha mashg‘ulotlar olib borar edilar. Bolalar va o‘smirlar sport maktablarida 1993-yilning o‘zida 1-razryadli 73 nafar sportchi, 34 nafar sport ustasi darajasiga nomzodlar, 4 nafar sport ustalar tayyorlandi. Bolalar va o‘smirlar sport maktablari viloyat umumta’lim maktab o‘quvchilarining 7,9 %ini¹ qamrab olgan edi. Biroq viloyatda oliy malakali sport ustozlari yetishmasligi muammosi mavjud edi.

Navoiy viloyatida maktab o‘quvchilarining maktabdan tashqari ta’lim tizimi asosida sport sohasida kengroq shug‘ullanishlari uchun imkoniyatlar 1994-1995 yillardan ommalasha boshladi. Jumladan, maktab o‘quvchilari o‘rtasida sportni rivojlantirish maqsadida Navoiy viloyati 1-4- sinf o‘quvchilari 1995- yildan boshlab 1-Respublika sport festivalida, yuqori sinf o‘quvchilari esa sportning 20 ta turi bo‘yicha Respublika sport spartakiadasida ishtirok eta boshladilar.

Viloyatda birinchi sport spartakiadasi va festivali 1995- yilda 10-12- mart kunlari Karmana shahrida bo‘lib o‘tdi. Viloyat 1- sport festivalining 1- va 2-bochqichlarida viloyat maktablarining jami 24 212 nafar o‘quvchilari qatnashdilar. Natijalarga ko‘ra jamoaviy g‘oliblikni qo‘lga kiritgan Navoiy tumani jamoasi Jizzax shahrida bo‘lib o‘tgan respblika bosqichida ishtirok etdilar². Respublika spartakiadasida Navoiy viloyatining maktab o‘quvchilari umum jamoa hisobida 7-o‘rinni qo‘lga kiritdilar.

¹ Navoiy viloyati davlat arxivi. Fond-66, rўyxat-1, йиғма жилд-49, 6-7-варақлар.

² Navoiy viloyati davlat arxivi. Fond-66, rўyxat-1, йиғма жилд-22, 15-варақ.

Navoiy shahridagi №10-maktabning o‘quvchilaridan iborat “Shuhrat” jamaoasi Respublika XIII “Quvnoq startlar” televizion o‘yinida 4-o‘rinni qo‘lga kiritdilar³.

Navoiy viloyatida maktabdan tashqari ta’lim tizimi asosida o‘quvchilarni sport bilan shug‘ullanishi 1996-yildan yanada rivojlana boshladi. Xususan, 1996- yilda Navoiy viloyatida Xalq ta’limi boshqarmasiga qarashli 13 ta sport maktablari mavjud bo‘lib, ularda 10 362 nafar o‘quvchilar darsdan bo‘sh vaqtlarda sportning 19 ta turlari bo‘yicha shug‘ulandilar. Ushbu o‘quvchi-yoshlar bilan 194 nafar malakali trener-ustozlar mashg‘ulotlar olib bordilar. 1996-yil Navoiy viloyatida “Futbol yili” deb e’lon qilindi⁴.

Navoiy viloyatida jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish, xususan o‘quvchilarni maktabdan tashqari ta’lim tizimi asosida sport turlariga jalb qilishga qaratilgan ishlar rivojlanib bordi. Xususan, bu borada viloyat hokimining 1997-yil 17-yanvarda “1996-2000-yillarda viloyatda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi K-20-sonli Qarori, 1997-yil 17-martda “Viloyatda futbolni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 76-sonli Qarori qabul qilindi. Ushbu qarorlarning qabul qilinishi Navoiy viloyatida o‘quvchi yoshlar o‘rtasida sportni yanada rivojlantirish va ommalashtirishga yordam berdi. Jumladan, 1997- yilda 176 075 nafar maktab o‘quvchilari sport bilan muntazam shug‘ullana boshladilar. 1997-yil viloyatda 15 ta bolalar va o‘smirlar sport maktablari faoliyat yuritardi⁵. Biroq ushbu sport maktablarining barchasi ham samarali faoliyat olib bormadi. Viloyat miqyosida bosqichma-bosqich o‘tkazilishi rejalashtirilgan sport musobaqalari tashkil etilmadi. Respublika miqyosida o‘tkazilgan sport musobaqalarida Navoiy viloyati jamaosi yaxshi natijalarni qo‘lga kiritmadilar. Xususan, 1998- yilda o‘tkazilgan “1-Yoshlar o‘yinlari”da viloyat jamoasi 11-o‘rinni egalladilar. Navoiy viloyati davlat arxivida saqlanayotgan Jismoniy tarbiya va sport qo‘mitasining 1998-yilgi hisobotida ta’kidlanishicha, bunga asosiy sabab sifatida mablag‘larning yetishmasligi ko‘rsatilgan⁶.

1998-yilda Navoiy viloyatining barcha shahar va tumanlarida maxsus-ixtisoslashtirilgan futbol sinflari hamda “Futbolni rivojlantirish jamg‘armasi” tashkil etiladi. Shuningdek, viloyat umumta’lim maktablarida harbiy chaqiruv gacha bo‘lgan

³ Navoiy viloyati davlat arxivi. Fond-66, rўyxat-1, йиғма жилд-22, 16-варак.

⁴ Navoiy viloyati davlat arxivi. Fond-66, rўyxat-1, йиғма жилд-22, 16-варак.

⁵ Navoiy viloyati davlat arxivi. Fond-66, rўyxat-1, йиғма жилд-36, 2-варак.

⁶ Navoiy viloyati davlat arxivi. Fond-66, rўyxat-1, йиғма жилд-36, 2-варак.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 02. Issue 07. July 2025

o‘quvchi-yoshlarning sog‘liqlarini mustahkamlash, ularni harbiy xizmatga dastlabki tayyorash maqsadida viloyat “Kamolot” jamg‘armasi hamda “Vatanparvar” tashkilotlari bilan hamkorlikda “Shunqorlar”⁷ sport musobaqlari ham tashkil etildi.

2000-yilda Nurota tumani Xalq ta’limi boshqarmasiga qarashli 53 ta umumta’lim maktablari bo‘lib, ularda 18 310 nafar o‘quvchilar tahsil olgan. Ularning ixtiyorida 2 ta o‘yingoh, 8 ta sport zali, 31 ta basketbol, 59 voleybol, 43 ta futbol maydoni va 7 ta kichik maydonchalari mavjud bo‘lgan. Biroq tuman jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha viloyatda oxirgi o‘rinlarda turur edi. Jumladan, Nurota tumani viloyat 5-o‘quvchilar spartakiadasida juda past ko‘rsatkichlarni ko‘rsatib, 8-o‘rinni egalladi. 16 ta sport turidan o‘tkazilgan maktab qo‘uvchilari o‘rtasidagi sport musobaqalarida 7 sport turidan sababsiz ishtirok etmadi. Tumanda maktab va sinfdan tashqari sport to‘garaklari holatini qayta ko‘rib chiqish va rivojlantirish zaruriyati vujudga kelgan edi. Qishloq maktablarida faoliyat olib borgan sport hududlari moddiy-texnika bazasi va sport ashyolari bilan ta‘minlanmagan, bolalar va o‘smirlar sportida faqatgina kurashni rivojlantirishga e‘tibor qaratilgan, jismoniy tarbiya va sport sohasida mablag‘lar yetarli emas edi⁸.

Navbahor tumani sport qo‘mitasining 2002-yil 2-yanvardagi “Tumanda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishning 2000-2005-yillarga mo‘ljallangan tadbirlar dasturi” qabul qilindi. Shunga asosan tumanda 52 ta jismoniy tarbiya va sport jamoalari tashkil etildi. Ularning 37 tasi umumta’lim maktablarida, 1 tasi kasb-hunar kollejida, 14 tasi esa turli mehnat jamoalarida faoliyat olib bordi. Ushbu jamoalarda 21 805 nafar maktab o‘quvchilari jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanishilari yo‘lga qo‘yildi. Yosh sportchilarni tayyorlash uchun tuman Xalq ta’limi boshqarmasiga qarashli Bolalar va o‘smirlar sport maktabi tashkil etilgan. Navbahor tumani Bolalar va o‘smirlar sport maktabida 2002-yil holatiga ko‘ra 5 ta sport turlari bo‘yicha bo‘limlar faoliyat olib borgan. Jumladan, milliy kurash bo‘yicha 100 naar o‘quvchi, futbol bo‘yicha 182 nafar o‘quvchi, voleybol bo‘yicha 154 nafar o‘quvchi, qo‘l to‘pi bo‘yicha 108 nafar o‘quvchi, shaxmat bo‘yicha 48 nafar o‘quvchi jami bo‘lib 9592 nafar o‘quvchilar⁹ maktabdan tashqari, darslardan bo‘sh vaqtda mashg‘ulotlar olib borishgan.

⁷ Navoiy viloyati davlat arxivi. Fond-66, rўyxat-1, йиғма жилд-36, 5-варак.

⁸ Navoiy viloyati davlat arxivi. Fond-66, rўyxat-1, йиғма жилд-64, 11-12-вараклар.

⁹ Navoiy viloyati davlat arxivi. Fond-66, rўyxat-1, йиғма жилд-72, 14-варак.

2002-yil Xatirchi tumanida esa 102 ta jismoniy tarbiya va sport jamoalari tashkil etilgan bo‘lib, ularning asosiy qismi, ya’ni 82 tasi umumta’lim maktablarida, 1 tasi akademik litseyda, 4 tasi kasb-hunar kollejlarda, 15 tasi esa turli mehnat jamoalarida tashkil etilgan. Ushbu jamoalarda 45 630 kishi muntazam ravishda jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullangan. Ulardan 43 516 nafarini maktab o‘quvchilari tashkil etgan¹⁰. Arxiv hujjatlaridan ma’lum bo‘lishicha, bu vaqtda Xatirchi tumanida bolalar va o‘smirlar sportining ahvoli qoniqarli darajada bo‘lmagan. Xususan, Xatirchi tumani bolalar va o‘simirlar sport maktabi tuman Sport qo‘mitasiga qarashli bo‘lib, maktab binosi nochor avholda, jihozlari va sport anjomlari juda yaroqsiz holga kelgan, maktab o‘quvchilari ro‘yxati, sportchilarning shaxsiy varaqalari, ustoz-murabbiylarning ish rejaları va talab qilingan hujjatlar mavjud emasligi, o‘tilayotgan darslar ahvoli ham namunaviy darajada emasligi aniqlangan.

Shunday qilib, Maktabdan tashqari ta’lim tizimi, xususan sport maktablari va sog‘lomlashtirish muassasalari, o‘quvchi-yoshlarning jismoniy va ma’naviy kamolotida muhim o‘rin tutadi. Navoiy viloyatida mustaqillikdan so‘ng bu yo‘nalishda olib borilgan islohotlar, qabul qilingan qarorlar, tashkil etilgan sport tadbirlari va maktablar ijobiy natijalar berayotgan bo‘lsa-da, ayrim yillarda va tumanlarda bu faoliyat yetarli samaradorlikka erisha olmagan.

1993–2002 yillar oralig‘ida viloyatda sport bilan shug‘ullanuvchi o‘quvchilar sonining ortib borishi, turli sport turlarining rivojlanishi, respublika miqyosidagi musobaqalarda ishtirok etilishi ijobiy holat bo‘lsa-da, moddiy-texnik baza, malakali trener-ustozlar yetishmovchiligi, ba’zi sport maktablarining tashkilotchilik va metodik jihatdan sust ishlashi dolzarb muammo bo‘lib qolgan.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, sport maktablari faqatgina jismoniy tarbiya vositasi emas, balki o‘quvchilarning sog‘lig‘ini mustahkamlash, ularni harbiy xizmatga, mehnatga va hayotga tayyorlashda muhim rol o‘ynaydi. Shu boisdan ham, maktabdan tashqari ta’lim tizimini yanada rivojlantirish, mavjud infratuzilmani modernizatsiya qilish, murabbiylar malakasini oshirish va tizimli yondashuvni yo‘lga qo‘yish bugungi kun talabidir.

¹⁰ Navoiy viloyati davlat arxivi. Fond-66, rўyxat-1, йиғма жилд-78, 5-варақ.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Navoiy viloyati davlat arxivi. Fond-66, ro‘yxat-1, yig‘ma jild-36, varaqlar – 2.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, “2021–2025 yillarda O‘zbekistonda sportni rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida” PQ–4891-son, 2020 yil 30 dekabr.
3. “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonun, O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 2021 yil 4 avgust.
4. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. — Toshkent: Ma‘naviyat, 2008.
5. G‘ulomov A., Ergashev I. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. — Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
6. Hasanov S., Jo‘rayev M. Maktabdan tashqari ta‘lim tizimi va uning zamonaviy rivojlanish yo‘nalishlari. — Toshkent: Fan, 2019.



Research Science and
Innovation House